

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasash modellari.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili...	90
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'lining bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремиологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алтишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 821.51.1.11

**“TEMUR TUZUKLARI” HAMDA “BOBURNOMA”DA AN’ANA VA VORISIYLIK
ТРАДИЦИЯ И ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ В “УЛОЖЕНИИ ТИМУРА” И “БАБУР-НАМЕ”
TRADITION AND INHERITANCE IN “TEMUR’S CODE” AND “BABURNAMA”**

Jurayev Islomjon Mamasodikovich¹ ¹Farg’ona davlat universiteti, o’qituvchi**Jo’rayev Habibullo Abdusalomovich²** ²Farg’ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori, professor**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatida davlat boshqaruvi, qonunchilik va ma’naviy hayotda izchil yondashuvlar o’z ifodasini topgani yoritiladi. “Temur tuzuklari” va “Boburnoma” asarlari tarixiy manba sifatida tahlil qilinib, ularning mazmunida davlat tashkiloti, axloqiy-me’yoriy qadriyatlar, adolatli boshqaruv tamoyillari ifodasi ko’rsatib beriladi. Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur o’z davrining buyuk arboblari sifatida nafaqat siyosiy-harbiy faoliyatlari, balki adabiy-tarixiy asarlari orqali ham mustaqil fikr yurita olgan, o’z qarashlarini xalq va davlat manfaatlariga yo’naltira olgan shaxslar sifatida namoyon bo’ladilar. Ularning asarlari davlat boshqaruvi, jamiyat hayotining axloqiy, huquqiy, diniy va ijtimoiy tamoyillarini o’zida mujassam etgan nodir tarixiy yodgorliklardir. Ushbu asarlar nafaqat faktik ma’lumotlarga, balki mualliflarning shaxsiy kuzatuvlari, tahliliy qarashlari va tarixiy ongiga asoslangani bilan e’tiborga loyiqdir. Jumladan, Amir Temur tarixiy haqiqatni taqdim etish uchun voqealarni takror-takror tekshirgan, Bobur esa eshitgan voqealarini tasdiqlamaguncha yozmaslik prinsipiga amal qilgan. Har ikkala buyuk shaxsning asosiy maqsadi – kuchli, markazlashgan davlat tuzish, adolat asosida jamiyatni boshqarish bo’lgan. Ularning ijtimoiy tengsizlikka qarshi qat’iy pozitsiyasi, qonun-qoidalarini yaratishdagi ijodiy yondashuvi, tarixiy xotirani saqlashdagi fidoyiligi, shubhasiz, bugungi avlod uchun ham g’oyaviy-ilmiy o’rnak bo’lib xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье освещается, как в деятельности Амира Темура и Захириддина Мухаммада Бабура нашли свое отражение последовательные подходы к государственному управлению, законодательству и духовной жизни. Произведения “Уложения Тимура” и “Бабур-наме” анализируются как исторические источники, в содержании которых раскрываются принципы государственного устройства, морально-этические ценности и основы справедливого управления. Амир Темура и Захириддин Мухаммад Бабура предстают как выдающиеся деятели своей эпохи, способные не только к самостоятельному мышлению и направлению своих взглядов на благо народа и государства в политической и военной сферах, но и выразившие эти идеи в своих литературно-исторических трудах. Их произведения являются уникальными историческими памятниками, воплощающими в себе нравственные, правовые, религиозные и социальные принципы государственного управления и общественной жизни. Эти работы примечательны тем, что основаны не только на фактических данных, но и на личных наблюдениях, аналитических взглядах и историческом сознании авторов. В частности, Амир Темура неоднократно перепроверял события для представления исторической правды, в то время как Бабура придерживался принципа не записывать ничего, пока не подтвердит услышанные сведения. Главной целью обеих великих личностей было создание сильного, централизованного государства и управление обществом на основе справедливости. Их твердая позиция против социального неравенства, творческий подход к созданию законов и правил, самоотверженность в сохранении исторической памяти, несомненно, служат идейно-научным примером для современного поколения.

Abstract

This article illuminates the consistent approaches to state governance, legislation, and spiritual life manifested in the activities of Amir Timur and Zahiriddin Muhammad Babur. The works “Temur’s code” and “Baburnama” are analyzed as historical sources, with their content reflecting principles of state organization, moral and regulatory values, and equitable governance. Amir Timur and Zahiriddin Muhammad Babur, as great figures of their era, demonstrated independent thinking not only through their political and military endeavors but also through their literary and historical works, directing their views towards the interests of the people and the state. Their works are unique historical monuments that embody the moral, legal, religious, and social principles of state governance and societal life. These works are noteworthy for being based not only on factual data but also on the authors’ personal observations, analytical perspectives, and historical consciousness. Notably, Amir Timur repeatedly examined events to present historical truth,

ADABIYOTSHUNOSLIK

while Babur adhered to the principle of not writing until he had confirmed the events he heard. The primary goal of both great personalities was to establish a strong, centralized state and govern society on the basis of justice. Their resolute stance against social inequality, creative approach to the formulation of laws and regulations, and dedication to preserving historical memory undoubtedly serve as an ideological and scholarly example for today's generation.

Kalit so'zlar: Oilaviy-maishiy muammolar, ijtimoiy-siyosiy hodisalar, vorislik, an'ana, axloqiy-me'yoriy qadriyatlar

Ключевые слова: Семейно-бытовые проблемы, общественно-политические явления, преемственность, традиция, морально-этические ценности

Key words: Family and domestic issues, socio-political phenomena, continuity, tradition, moral and normative values

KIRISH

Asrlar davomida ulug' ajdodlarimiz tarixiy taraqqiyotning ichki mantig'ini tushunishga va shu asosda insoniyatning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishi muammolarini ijobiy hal etib, jamiyatni boshqarish, maishiy turmushni takomillashtirishning eng maqbul, adolatli usullarini joriy qilishga intildilar.

Oilaviy-maishiy muammolar, ijtimoiy-siyosiy hodisalardan tegishli xulosalar chiqarish, yo' qo'yilgan nuqson hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'z tajribalaridan kelib chiqib, avlodlarga dastur hamda o'g'itlar qoldirish haqida gap ketganida Amir Temur hamda Zahiriddin Muhammad Bobur merosiga tayanish kutilgan natijalarni beradi.

Temuriylar sulolasining asoschisi bo'lmish Amir Temur o'z davlatini qonunlar, davr talabiga mos tartib-qoidalar asosida barpo etmasa, bunday davlatning nufuzi, salohiyati, obro'siga putur yetar va uning hukmdori ham bu darajada tan olinmasdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham Hindiston va Afg'onistonni o'z ichiga olgan ulkan saltanatga asos solar ekan, ham iqtisodiy, ham siyosiy omillarni hisobga olgan holda, aholining diniy-dunyoviy holati, ma'naviy-ruhiy ahvolini nazardan qochirmasdan, tegishli qonun-qoidalar ishlab chiqishga, mavjudlarini mahalliy shart-sharoitga moslashtirishga bel bog'lagan. Shu bilan birga, temuriylar saltanatining boshqaruv tizimiga vorislik qilgan holda, o'z davrining siyosiy-huquqiy an'alariga tayanib faoliyat olib borgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Sharafiddin Ali Yazdiyning quyidagi ma'lumotlarini ham g'oyat qimmatli, deb hisoblash lozim. Uning aytishicha, Temur bosh devonida "Manzumai turk" asari tuzilgan, ushbu asar yozilayotganda, – deyiladi akademik I.Mo'minovning risolasida, – uning boblarini Temur necha martalab o'qib chiqqan; ba'zi joylarini tuzatgan, tahrir etgan, qo'shimcha dalillar zarur bo'lib qolganda, o'sha voqea sodir bo'lgan joylarga odam yuborib, aniqlashtirgan, voqealarning doimo to'g'ri, xronologik tartibda hamda tarixiy haqiqatga mos ravishda yoritilishini talab qilgan".[3,18]

Zahiriddin Muhammad Bobur ham har bir eshitgan voqea-hodisani o'z ko'zi bilan ko'rib, tekshirmaguncha, "Boburnoma"ga kiritmagan, tekshirib ko'rish imkoni bo'lmagan taqdirdagina "Val uhdatu alar roviy" (yolg'on bo'lsa gunohi aytgan odamning bo'yniga) degan ibora bilan yozishga majbur bo'lgan.[1,255] Bu jihatdan tarixiy asarlar yozilishida Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning o'zaro mushtarak pozitsiyalarini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Jamiyat o'zining zaruriy qonuniyatlariga egadir. O'sha zaruriy qonuniyatlar tarkib topmas ekan, jamiyatda turli tengsizliklar kelib chiqishi hamda bu bilan davlatning rivoj topishiga putur yetishi muqarrar. Shu bois ham Amir Temurning, 27 davlatni birlashtirgan markazlashgan ulkan saltanati, tabiiyki, qonunlar to'plamlari asosida yaratilgan va unga qat'iy amal qilish yo'lga qo'yilgan.

Shu ma'noda Zahiriddin Muhammad Bobur ham "Boburnoma"dan tashqari yana islomiy-shar'iy qonun-qoidalar, soliq va zakot tizimi haqidagi qonunlarni she'riy yo'l bilan bayon qilgani va "Mubayyin" nomi bilan meros qoldirgani Amir Temur an'alarining muayyan ko'rinishdagi davomi edi.

"Boburnoma" ham uning muallifi tomonidan "Vaqoye" tarzida nomlanishi, Bobur vafotidan so'ng "Voqeoti Boburiy", ba'zan "Tuzukoti Boburiy" sifatida shuhrat qozonganligi, keyinroq esa "Boburnoma" shaklida jahon keza boshlaganligi ma'lum. Bu esa, birinchidan, Boburning "Tuzuklar" bilan yaqindan tanish bo'lganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, "Boburnoma" muallifi Temur an'alarini izchil davom ettirganligidan dalolatdir. Har ikki asardagi lo'nda ifoda, qat'iy xulosalar, mantiqiy mustahkam qarorlar ham mualliflar pozitsiyasidagi mushtaraklikni belgilaydi.

Tuzuklarning yaratilishi, tili masalasida Mazhar Shihobning tadqiqotida ma'lumotlar keltirilgan. Unda Amir Temur nomidan quyidagi qaydlar mavjud: "Ushbu esdaliklarimni ajdodlarimdan sodir bo'layotgan amr ila turkiy chig'atoy tilida kitobat etdim. Bu (xayrli) ish Alloh taoloning musoadasi (ko'magi), payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom va u zoti sharifning izdoshlarining hifzi-himoyati ila tamomiga yetdi. Allohning inoyati ila podsholik taxtiga o'tirib, mamlakat hukmiga yetishimda omad menga kulib boqdi. Bu yutuqlar menga shijoatim, qat'iy kurashim va muhorabalarim orqali nasb etdi. ...Men, albatta, ushbu asosiy qonun-qoidalar va tartibotlarga qat'iy amal qildim. Ishonchim komilki, mening nabiralarimdan bir qanchasi kelajakda saltanat taxtiga o'tiradi. Shu boisdan ham men o'zim tartib bergan ushbu hikmatlarni ular uchun deb to'pladimki, ular ushbu qonunlar va tartibotlarga iqtido etib, ularga tayanib ish yuritadilar".[2,31]

Asar muallifining ana shunday tarixiy qaydlari "Boburnoma"da ham mavjud. Zero, Zahiriddin Muhammad Bobur Farg'ona taxtiga o'tirgan kunlarini sanasigacha aniq ko'rsatadi. Bu esa kitobning yaralishi, tili, uslubi, haqqoniyligi haqida shubhalarga o'rin qoldirmaydi: "Tengri taoloning inoyati bilan va hazrati on Sarvari koinotning shifoati bilan va chahoryori bosafolarning himmati bilan seshanba kuni ramazon oyining beshida tarix sakkiz yuz to'qson to'qqizda Farg'ona viloyatida o'n ikki yoshda podshoh bo'ldim".[1,5]

Ko'rinadiki, Amir Temur ham, uning zurriyodlaridan bo'lgan shavkatli shoh va shoir Bobur ham o'z zamonasi talablari, tarixiy muhit taqozosidan kelib chiqib, ijtimoiy-siyosiy hayotni muayyan tartiblar asosida boshqarish, qonun-qoidalarini yangilash yo'lidan borganlar. Bu borada ularning keng dunyoqarashi, izchil pozitsiyasi, xolislik va adolatli munosabatlari, uzoqni ko'ra bilishlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

"Tuzuklar" va "Boburnoma"da davlat mansablari, davlat xizmati, ularni tashkil qilish, mansab, toifalar egalari o'rtasidagi munosabatlar jihatdangina emas, balki axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-falsafiy jihatlardan ham e'tiborga molikdir.

Badiiy asarda muayyan xalq ruhini, xohish-istagi, milliy mentalitetini haqqoniy ifodalay olish darajasi esa muallifning ko'p jihatdan ana shu xalq bilan qay darajada ruhan yaqinligi orqali belgilanadi. Amir Temur ham, uning vorisi bo'lgan Bobur ham ana shunday muayyan tarixiy sharoitda, ijtimoiy-siyosiy voqelikda yashadi va o'z faoliyatini boshladi. Shuning uchun ham "Tuzuklar" hamda "Boburnoma"dagi ko'plab g'oyalar, umumlashma xulosalarda o'z davrining muammolari, vazifalari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning bolaligi esa erta nihoyasiga yetdi. U 12 yoshidayoq, otasining bevaqt halok bo'lishi oqibatida, taxtga o'tirishiga to'g'ri keldi. Umr bo'yi toj-taxt uchun kurashlarda, ot ustida yurishiga qaramasdan, shoir va sarkarda o'z davrining ilm-fanini, adabiyot va san'atini puxta egallash uchun ham fursat topa oldi. Xuddi Amir Temur singari diniy va dunyoviy bilimlarni o'zlashtirdi.

Amir Temur siyosiy maydonga tarixan o'ta murakkab davr – XIV asrning 60-yillarida, ya'ni mo'g'ullar istilosi davom etayotgan davrda chiqqan. Ushbu davrda Chig'atoy ulusiga qarashli bo'lgan hududlarda feodal tarqoqlik kuchaygan bo'lib, toj-u-taxt uchun kurashlar avjiga chiqqan edi. Movarounnahrda mahalliy xalq ikki tomonlama – ham mo'g'ullar zulmidan, ham mahalliy hokimlar o'rtasidagi kurashlardan azob chekar edi. Ana shunday og'ir siyosiy vaziyatda o'zbek davlatchiligi tarixida markazlashgan davlat barpo etishni Amir Temur bosh maqsad qilib olgan edi. "Tuzuklar"ning "Xuruj vaqtida qilgan oltinchi kengashim" deb nomlanuvchi qismida muallif o'z oldida qanday tarixiy vazifalar turganligini, taqdir uni nimalarga tayyorlayotganini quyidagicha bayon etadi: "Otliqlar tarqalib ketib, qirq otliq kishigina qolgan ekanmiz. Lekin ularning barisi aslzoda, amirzoda va nasli toza pok yigitlar edi. Shundayin azamatlar bu og'ir kunlarda nimadandirki, men kabi oltin-u molsiz, oziq-ovqatsiz bir kishiga hamrohlik qilib, mening iznimga kirib tog'-toshlarda ergashib yurganlari uchun Tangriga shukrlar aytdim. O'zimcha, "Alloh taoloning men bilan qilarlik ulug' ishlari bo'lg'aykim, o'zim kabi yigitlarni menga bo'ysundirmishdir", – deb o'yladim".[2,25]

Kelajakka ishonch, ertangi kunga umid bilan yashash Zahiriddin Muhamad Boburga ham xos bo'lgan. Zero, u erishgan yutuqlari bilan hech qachon mag'rurlanmagan. Mashaqqat va xatarlardan omon chiqqanida buni taqdirning inoyati, Yaratganning marhamati sifatida baholashga harakat qilgan. Masalan, amakisi Sulton Ahmad mirzo yosh va tajribasiz hukmdor Bobur ustiga lashkar bilan bostirib kelganida qiyin ahvolga tushib qolgan. Falakning gardishi bilan Sulton Ahmad

ADABIYOTSHUNOSLIK

mirzoning lashkari Quvaga yetib kelganida botqoqqa botib, ko'plab qurbonlar berib, ortiga qaytishga majbur bo'lgan. Shu hodisa munosabati bilan "Boburnoma" muallifi quyidagilarni yozib qoldirgan: "Tengri taolokim, o'z qudrati komilasi bila har ishimni har mahalda andoqkim, boyadu shoyad beminnati maxluq rost kelturubtur, munda ham necha ishni bois qildikim, alar bu kelmakdin o'sondilar (pushaymon bo'ldilar), balki bu tavajjuh din pushaymon bo'lub, bemurod yondilar".[1,18]

Sohibqiron Amir Temur qanchalar qat'iyatli shaxs, keskin xarakterli hukmdor bo'lmasin, turli elat va urug'larga bo'linib ketgan, o'zaro nizolar avj olgan bir pallada murosa bilan ish ko'rishga, nufuzli qavmlarning boshliqlari bilan til topishishga, aholining moddiy-ma'naviy ahvolini hisobga olishga majbur edi. Shuning uchun ham mashvarat va murosa yo'li "Tuzuklar"da nizomning asosiy bandlaridan biri sifatida kiritiladi.

Bobur mirzo ham turli nifoq hamda nizolarning oldini olish maqsadida, o'zi zabt etgan hududlarning obro'li va nufuzli qabila boshliqlarini munosib mansablarga tayinlagan. Hatto afg'on qabilalaridan birining boshlig'i bo'lgan kishining Afg'on og'acha ismli qiziga uylangan, quda-andachilik vositasida tinchlik va taraqqiyot yo'liga o'tishga intilgan.

"Tuzuklar"ning kirish qismidayoq Amir Temur gapni o'zining piri, mashhur shayx Zayniddin Abubakr Toybodiyning o'ziga yozgan maktubidan boshlaydi. Shayxning o'git va nasihatlarini keltirib o'tadi. Chunki Toybodiyn o'z davrining taniqli shayxulislomlaridan biri bo'lgan. El-yurt orasida ehtiromga munosib zot sifatida davlat ishlarini yuritishda hukmdorlarga maslahat va o'git berishga haqli bo'lgan. Bunday zotlarni izzat-hurmat qilish atrofdagilarning xayrixohligiga sabab bo'lishi Amir Temur chuqur his qilgan. Natijada bunday ish tutishni "Tuzuklar"ning asosiy bandlaridan biriga aylantirgan. "Tuzuklar"da muhtaram zotlar, avliyolar, pirlar va ular bilan bo'lgan munosabat-muloqotlarga keng o'rin berilishi ham bejiz emas.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham shayx va avliyolarga, islom olamining taniqli shaxslariga nisbatan yuksak ehtiromda bo'lgan. Xususan, o'rta asrlar musulmon olamining yirik shayxlaridan biri Xoja Ahror valiyini o'zining ma'naviy piri va murshidi deya tan olgan. Jumladan, Samarqand fathiga kirishgan kunlarida tushiga Xoja Ahror kirgani va g'alabadan bashorat qilgani aytiladi: "O'shul fursatta ajab tush ko'rdu, – deb yozadi Bobur, – Tush ko'rarmankim, hazrati Xoja Ubaydullo kelmishlar, men istiqbollarga chiqmishmen, Xoja kelib o'lturdilar... Qaytayotganlarida kuzatgani chiqdim. Ushbu uyning dolonida o'ng qo'limdin yo so'l qo'limdin tutub, andoq ko'tardilar, bir oyog'im yerdin uzildi. Turkiy dedilarkim: "Shayx maslahat berdi". O'shul necha kunda-o'q Samarqandni oldim".[1,75]

Sohibqiron Temur saltanatni boshqarishda vazirlarni, amirlarni, devonbegini, viloyatlardagi devon xodimlari va beklarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yishda nomzodlarning nasl-nasabiga, aql-farosatiga, xalqparvarligiga, adolatparvarligiga, ziyrakligi-yu, odamlar bilan muomalasiga katta e'tibor bergan. Uning fikricha, davlat hokimiyati zo'rvonlik bilan emas, balki o'z hukmining ta'sirchanligi va adolat bilan boshqarilishiga tayanmog'i kerak. U vazirlardan quyidagi xislatlarga ega bo'lishni talab etgan: birinchisi, asli-nasli tozalik; ikkinchisi, aql-farosatlilik; uchinchisi, sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, xushmuomalalik; to'rtinchisi, sabr-toqatlilik.

"Boburnoma"da biz so'z yuritayotgan mavzuga aloqador qiziqarli faktlar talaygina. Masalan, Sulton Husayn Boyqaro ham ota, ham ona tomondan Amir Temurga ulangani uchun "karimut-tarafayn", ya'ni ikki tomonlama aslzoda deya e'zozlanadi. Oddiy savdogarlikdan Hisorning mustaqil hukmdori darajasiga ko'tarilgan Xisravshohning zolimligi, kaltafahmliigi hamda fahshligi haqida gapirayotib, Bobur uning bu nuqson va illatlarini "asli nasli" pastligidan, ya'ni shohlar avlodidan emasligidan deb biladi.

"Temur tuzuklari"da yozilishicha, Amir Temur davlatni boshqarishda kengash va maslahatga katta e'tibor bergan. "Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilichdir".[2:10] Demak, sohibqiron o'z saltanatini kengash, qurultoy, mashvarat va tadbirkorlik bilan boshqargan. «Tuzuklar»da, yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri kengash bilan amalga oshirdim, deb yozadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Zahiriddin Muhammad Boburning eng jozibali fazilatlaridan biri ham haqiqatga tik qarash, rost gapni hamisha ayta bilish va adolatni yoqlash bo'lgan. "Boburnoma"da bu haqda shunday o'rinlar bor: " Bu bitilganlardin g'araz shikoyat emas, rost hikoyatdurkim, bitibturmen. Bu mastur bo'lg'onlardin maqsud o'zning ta'rifi emas, bayoni voqe'i bu edikim tahrir etibturmen. Chun bu

tarixta andoq iltizom qililibturkim (qaror qilindikim) har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay..."[1,180]

Shuni ta'kidlash kerakki, Amir Temur ham, Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'z asarlarida muallif sifatida, avvalo, o'zlari olijanoblik, ishbilarmonlik, bag'rikenglik, donishmandlik sifatlarini namoyon etganlar. Har ikki asarda muallif pozitsiyasi bir-biriga yaqinligi, ko'p o'rinlarda hamohangligi bilan diqqatni tortadi. Ana shu xususiyat va fazilatlar tufayli "Tuzuklar" hamda "Boburnoma" mualliflari o'z asarlarida tarixiy aniqlik, badiiy yuksaklik, kompozitsion yetuklik va uslubiy ixchamlikka to'la erishganlar.

"Temur tuzuklari"da bo'lajak sohibqiron siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritishga urinar ekan, ko'plab mashaqqat va qiyinchiliklarni boshdan kechiradi. Shunday paytlarda u tug'ishgan opasi Qutlug' Turkon og'aning yordamiga tayanganligi haqida quyidagi qaydlarni o'qiyimiz: *"Tunda pinhona Samarqandga kirdim va to'ng'ich opam Qutlug' Turkon og'aning uyiga borib joylashdim. Shu tariqa qirq sakkiz kun yashirib yotdim"*. [2,34]

Boburga ham ruhan eng yaqin bo'lgan ayol uning opasi Xonzodabegim edi. Bu ayol ham Boburning tahlikali pallalarida doimo yonida bo'lgan. Kerak bo'lsa, o'zini qurbon qilib bo'lsa ham, inisining boshini omon saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Masalan, Bobur mirzo Samarqandda ekanligida bu shahar Shayboniyxon qo'shinlari tomonidan qamal qilinadi. Oylab davom etgan qamal azoblari, muttasil ochlik va xastaliklar aholinining tinkasini quritadi. Shunda Shayboniyxon tomonidan yuborilgan elchilar Xonzodabegim Shayboniyga turmushga chiqishga rozi bo'lsa, uning inisi Bobur mirzoni eson-omon qamaldan chiqarib yuborilishiga va'da beradilar. Bu haqda Bobur mufassal ma'lumot bermaydi. Faqatgina Samarqand qamali haqida gapirayotganida Xonzodabegim "ul fatarotta Muhammad Shayboniyxonga tushib edi", deyish bilan kifoyalanadi. Ehtimol, "Boburnoma" muallifi voqealar tafsilotini to'la bayon etishga andisha qilgandir, oriyati yo'l qo'ymagandir?

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni fath etish uchun qo'shin tortganda, Kobul hukmdorligiga sevikli rafiqasi Mohim begimni qoldiradi. Musulmon Sharqida o'ta noyob bo'lgan bu hodisa Bobur mirzoning ahli ayoliga, umuman, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rniga munosib baho bera olganligidan dalolatdir. Mohim begim bir necha yil Qobul hukmdorligini muvaffaqiyat bilan bajaradi. Bobur yangi zabt etilgan yerlarda tartib-intizomni mustahkamlash, qayta tiklash, davlat ishlarini yo'lga qo'yish bilan o'ta band bo'lgan chog'larda uning umr yo'ldoshi Poytaxt va uning atrofini ishonchli qo'llarda saqlaydi. Umr yo'ldoshiga ham moddiy, ham ma'naviy, ham harbiy ko'makka hamisha tayyor turadi. Bobur mirzo sadoqatli rafiqasiga bo'lgan ehtiromini she'rlarida ham ifoda etgan. O'zi Hind diyorida jang-jadallarda yurganida suyukli rafiqasiga sog'inchli maktublar, she'riy asarlarini muntazam yuborib turadi.

Sohibqiron Temurning oila va nikohga munosabatlari, xotin-qizlarga hamisha ehtiromda bo'lishi, farzand tarbiyasi bilan bog'liq donishmandona mushohadalari ham e'tiborga loyiqdir. Amir Temur ayollarga ma'lum erkinliklar bergan, hatto ularning rasmiy marosimlarda ishtirokini ham ta'minlagan. Ispan elchisi Klavixo rasmiy marosimlarda Amir Temurning suyukli rafiqasi Saroymulkxonim bevosita ishtirok etganligi haqida xabar beradi. [4,156]

XULOSA

Tahlilga tortilgan lavhalardan ma'lum bo'ladiki, sohibqiron Amir Temurning ma'naviy olami, axloqiy fazilatlar ham keyingi davr temuriy hukmdorlariga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Oila sha'nini saqlay bilish, xotin-qizlarga ehtirom bilan munosabatda bo'lish singari fazilatlar avval temuriylar, so'ngra boburiylar sulolasi vakillari tomonidan izchil davom ettirilgan. Bugungacha o'z mahobati, nafisligi, haqqoniyati bilan olam ahlini hayratga solib kelayotgan "Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma" singari azim obidalar bir qator tarixiy shaxslarga, ularning oilaviy munosabatlari va jamiyatdagi mavqelariga qo'yilgan munosib yodgorliklardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. (1989). Бобурнома. Т.: Юлдузча.
2. Темур тузуклари. (1991). Т.: Ўзбекистон.
3. Мўминов, И. (1993). Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Т.: Фан.
4. Руи Гонсалес де Клавихо. (2010). Самаркандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар). Таржимон: Тогаев О. – Т.: Ўзбекистон.